

## **RANGTASVIR DARSLARIDA BAKALAVRIAT TALABALARIDA MAXSUS KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISH**

Tursunova S.S.

TDPU, Tasviriy san'at va amaliy bezak  
san'ati mutaxasisligi 2-bosqich magistranti.

**Annotatsiya:** maqolada oliy ta'lif universitetlarida rangtasvir mashg'ulotlari va naturmort tasvirlanishi haqida ma'lumot berilgan. Talabalarga rangtasvirda naturmort ishslashning ahamiyati haqida bayon qilingan. Shuningdek rangtasvir mashg'ulotlarida o'quv naturmortini ishlatish orqali maxsus kompetensiyani rivojlantirish haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** tasviriy san'at, rangtasvir, naturmort, o'quv naturmorti, ijodiy naturmort, rassom, talaba, tomoshabin, asar, janr, yo'nalish, xususiyat, natura, material, geometrik jism, ijod, yorug'-soya, ranglar gammasi, rang-tus, hajm, perspektiva, shakl, kompozitsiya, moybo'yoq, akvarel, guash.

**Аннотация:** в статье представлена информация о занятиях живописью и натюрмортом в высших учебных заведениях. Студентам рассказали о важности натюрморта в живописи. Также задумывались о развитии специальных компетенций на материале натюрморта на уроках живописи.



**Ключевые слова:** изобразительное искусство, живопись, натюрморт, учебный натюрморт, творческий натюрморт, художник, ученик, зритель, произведение, жанр, направление, черта, натура, материал, геометрическая фигура, творчество, светлый оттенок, цветовая гамма, цвет, размер, перспектива, форма, композиция, акварель, гуашь.

**Annotation:** the article provides information about painting classes and still life depiction in universities of higher education. Students were told about the importance of still life work in the painting. It was also thought about developing professional competence by using educational still life in painting classes.

**Key words:** fine art, painting, still life, educational still life, creative still life, artist, student, viewer, work, genre, direction, feature, nature, material, geometric body,

creativity, light shade, color gamut, color, size, perspective, shape, composition, watercolor, watercolor, gouache.

Bugungi kunda Respublika xukumatimizning qator xujjatlari vatanimizning har tamonlama jahon andozalari talablari asosida rivojlanishiga qaratilmoqda. Jumladan yoshlarga ta'lim-tarbiya berishda madaniyat, urf-odatlar, an'analar, milliy qadiryatlar va ota -bobolarimiz tomonidan yaratilgan, butun jahonga mashhur bo'lgan ajoyib san'at namunalaridan keng foydalanishga katta ahamiyat berilmoqda. "Ulug' ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan va bugungi kunda butun ma'rifatli dunyoni hayratga solib kelayotgan ilmiy meros faqat bir millat yoki xalqning emas, balki butun insoniyatning ma'naviy mulki bo'lib, bu beba ho boylik yangi va yangi avlodlar uchun donishmandlik va bilim manbai, eng muhimi, yangi kashfiyotlar uchun mustahkam zamin bo'lib xizmat qilishi shubhasizdir"<sup>1</sup>

Yoshlarni tarbiyalashda, madaniyatini-ma'naviyatini kengaytirishda tasviriy san'atning ahamyati bugungi kunda ham o'z kuchini yo'qotmagan. Tasviriy san'at zamon ham, makon ham tanlamaydi. Tasviriy san'at har qachon, har yerda o'zining go'zalligi, nafosati, ma'no-mazmuni, g'oyalari bilan insonga cheksiz ta'sir ko'rsata oladi.

Tasviriy san'at turlaridan biri bo'lgan rangtasvir o'zining jozibadorligi, yorqinligi, yorug'-soya o'yini, kompozitsion yechimi, ranglar gammasi bilan tomoshabinni o'ziga jalb etadi.

Rangtasvir deb, tekis yuzada turli rang va materiallar yordamida bajariladigan tasvirga aytildi. Bu tur uchun asosan moylibo'yoq, akvarel, guash, tempura, shuningdek, rangli qalamlar, ko'mir qalamchalari, pastel, sous, sangina kabi badiiy materiallar bilan ishslash harakterlidir.

Rangtasvir asarlari qog'oz, mato, karton, devor, oyna, yog'och kabi tekis yuzalarga ishlanadi. Rangtasvir asosini rang tashkil etadi. Har qanday rangtasvir ishida, avvalo, uning rasmi ishlab olinadi. Unda kompozitsiya, yorug' va soya, rang asosiy o'rinni egallaydi.

Rangtasvir asarlari bajarilish texnikasi jixatdan turli-tuman bo'lib, ular moybo'yoqli, temperali, freskali, mozaikali, vitrajli, akvarelli, guashli, pastelli bo'lishi mumkin.

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prizidenti Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida "O'zbekistonda islom madaniyati markazini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2017-yil 23-iyundagi ma'ruzasi. Ma'rifat gazetasi, 2017-yil 24-iyun, №50 (9011).



Rangtasvirning quyidagi turlari mavjud: 1. Dastgohli rangtasvir. 2. Monumental (mahobatli) rangtasvir. 3. Dekorativ (bezak) rangtasvir. 4. Teatr dekorativ (bezak) rangtasviri.<sup>2</sup>

Dastgohli rangtasvir rangtasvir turlari ichida eng ko'p ijod qilinadigan turidir. Dastgohli rangtasvirda ijod qilgan O'zbekistonlik rassomlardan P.Benkov, A.Abdullaev, Ch.Ahmarov, R.Axmedov, O'.Tansiqboyev, B.Jalolov, J.Umarbekov, A.Nur, R.Choriev, A.Ikromjonov, O.Qozoqov, N.Orripova, D.Mamedova va boshqalarni keltirishimiz mumkin.



**Rahim Ahmedov. Naturmort**

Tasviriy san'at mashg'ulotlari talabalarning pedagogik faoliyati va badiiy ijodkorligini o'stirishda katta ahamyatga ega. Naturadan haqqoniy tasvirlash atrofimizdagi voqeа-hodisalar yoki narsalarning shakl va bo'yoqlarini haqqoniy tasvirlash malakasini o'z ichiga oladi. Haqqoniy tasvirlash savodini dastlabki ta'lif bosqichlarida o'quv naturmortlarini bajarish orqali o'zlashtirish mumkin.<sup>3</sup>


Rangtasvir mashg'ulotlarida naturmort haqidagi tushuncha va uning rivojlanishining qisqacha tarixi, oddiy geometrik jismdan tashkil topgan

<sup>2</sup> Xasanov R. Tasviriy san'at asoslari. -T.: G'ofur G'ulom. -2009 y, -6 b.

<sup>3</sup> Isoxojayeva N. Rangtasvir.Kompozitsiya. (Naturmort) (O'quv qo'llanma)-T.: TDPU-2014 y.-13 b.



naturmortdan boshlab, vazifalarni metodik izchillik bilan murakkablashtirib borish, shakli, tuzilishi va meteriali har xil bo'lgan bir qator buyumlardan iborat naturmort tuzib, ularni tasvirlash rassomchilik sirlarini ishonchli va sinalgan yo'li hisoblanadi.<sup>4</sup>



### O'quv naturmorti.



Natyurmort janri. "Natyurmort" so'zi fransuzcha bo'lib "jonsiz tabiat (natura)" ma'nosini anglatadi. Bu janrdan asosan rangtasvir va grafika asarlarida keng qo'llaniladi. Tasviriy san'atning bu janrida gullar, mevalar va sabzavotlar, qushlar, oziq-ovqatlar, turli predmetlar aks ettiriladi. Natyurmort mustaqil janr sifatida XV—XVI asrlarda Gollandiya va Ispaniyada paydo bo'lgan.

Natyurmortning xarakterli xususiyati-uning hayotdan, go'zallikdan zavqlanishga undashidadir. Bu vazifani rassom gullar, meva-sabzavotlar, oziq-ovqatlarni turli ko'rinish va ranglarda ifodalab, kishilarning his-hayajonini uyg'otish orqali bajaradi.

<sup>4</sup> Isoxojayeva N. Rangtasvir.Kompozitsiya. (Naturmort) (O'quv qo'llanma)-T.: TDPU-2014 y.-4 b.



**Nodira Oripova "Anorli naturmort."**

Mutaxassislar natyurmortning kishilarga ikki xil ta'sirini qayd etishadi. Birinchisida, natyurmort kishilarni go'zallika oshno etib, ularni hayotdan zavqlanishga chorlaydi. Agarda u meva-sabzavot va oziq- ovqatlar tasviridan tashkil topgan bo'lsa, tomoshabinga yaxshi kayfiyat va illiqlik baxsh etadi. Ikkinchisida, natyurmort o'zi haqida emas, balki u bilan bog'liq, shaxs uning egasi haqida ma'lumot beradi. Bunday natyurmortlarda kishilar aks etmasa-da, biroq, uning didi, ijtimoiy mavqeい ifodalananadi.<sup>5</sup>




**Anri Fanten-Latur "Mevali va gulli naturmort"**

<sup>5</sup> Xasanov R. Tasviriy san'at asoslari. -T.: G'ofur G'ulom. -2009 y, -16-17 b.

Natyurmort tuzilish maqsadiga qarab o‘quv va ijodiy bo‘lishi mumkin. O‘quv natyurmortlari ijodiy natyurmortdan albatta, farq qiladi. O‘quv natyurmorti ma’lum dastur talabini o‘rganish uchun bajariladi.

Naturmortni xona ichida, ochiq havoda, soya va quyoshda, tabiiy va sun’iy yorug’likda tasvirlash lozim. Bu esa o‘z navbatida, o‘quv va ijodiy vazifalarni samarali amalga oshirishga puxta zamin yaratadi.

Har bir o‘quv naturmortining mazmuni rangtasvir dasturida ko’rsatilganidek aniq maqsad va vazifaga ega bo‘lishi kerak. O‘quv vazifalaridan tashqari, naturmort estetik talablarga ham javob bermog’i kerak. Buyum va narsalar aynan mavzuga oid bo‘lishi, mazmun jihatdan ma’noli va ta’sirchan bo‘lishi va ma’lum g’oyani ilgari surishi kerak.



### O‘quv naturmorti

Naturadan rangtasvir ishlash jarayonining o‘z qonuniyatlari mavjud bo‘lib, bu ishni tartib bilan olib borish talab etiladi. Ketma-ketlik tartibini anglagan holda bajarilgan ish maxsuli muhim ahamiyatga egadir. Ishni nimadan boshlash, uning orasida qanday talablarga javob berish va qay o‘rinda tugallash kerakligini yaxshi bilmoq zarur. Rangtasvir bajarishda zarur bo‘lgan quyidagi talablar mavjud:

- 1) naturada mujassam umumiylar yorug’-soya, rang-tuslar va mushtarak ranglardan yorug’-soyani, rang-tusli uyg‘unliklar mavjud bo‘lgan katta bo‘laklarni aniqlash;

2) yorug'-soyali, rang-tusli uyg'unliklar katta bo'lagida, yorug'-soyalar va rang yo'nalishlari, ayrim narsa sirtiga ranglar bilan muttasil ishlov berish;

3) umumlashtirish, butun tasvirning yaxlitligiga erishish, kompozisiya markazini ajratib ko'rsatish.

Talabalar rangtasvir mashg'ulotlarida o'quv naturmortlari ishlash orqali, ularda maxsus va ijodiy kompetensiyani rivojlantirish mumkin. Bu esa ularning kelgusidagi mehnat va ijodiy faoliyatlarida albatta o'z samarasini beradi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)**

1. O'zbekiston Respublikasi Prizidenti Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida "O'zbekistonda islom madaniyati markazini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2017-yil 23-iyundagi ma'ruzasi. Ma'rifat gazetasi, 2017-yil 24-iyun, №50 (9011).
2. Isoxojayeva N. Rangtasvir.Kompozitsiya.(Naturmort) (O'quv qo'llanma)-T.: TDPU-2014 y.-174 b.
3. Xasanov R. Tasviriy san'at asoslari.-T.: G'ofur G'ulom.-2009 y.,-199 b.
4. Ro'ziyeva D., Usmonboyeva M., Holiqova Z. Interfaol metodlar: mohiyati va qo'llanilishi / Met.qo'll. – T.: Nizomiy nomli DTPU, 2013. – 115 b.

